



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 16 (931)  
8-noyabr, Dushanba  
2021-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
mardan chiga  
boshlagan

## ZAMONAMIZ QAHRAMONLARI

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

Shifokorlar millatning eng katta boyligi va xazinasidir. Chunki bu dunyoda sog‘liq o‘laroq bebahone’mat bormi?! Vujudimizni og‘riq zirqiratib tursa, ko‘nglimizga nima sig‘adi? Jondan yaxshi ko‘rgan oilamizmi yoki hayotimizning muhim bir qismiga aylangan ishimizmi? Aslo! Ko‘nglimizga hech kim va hech nima sig‘maydi, sig‘dirolmaymiz. Xalqimiz orasida mashhur, asrlarning elagidan o‘tib kelayotgan “Sog‘lik – tuman boylik” maqoli ham bejizga aytilmagan. Axir, baxtli va boy inson – sog‘lom inson emasmi?! Holbuki, ko‘hna dunyoning oltin gultojlari shu kungacha ne-ne kasalliklar oqimiga qarshi tabiblar, shifokorlar yordamida kurashib keldi. Shuning o‘zi shifokorlar har bir davrning eng katta ehtiyoji ekanini ko‘rsatib beradi.

Shu o‘rinda, bugun XXI asr dunyosi ham og‘ir biosiyosiy jaryonni boshdan kechirmoqda, asoratlari pandemiya sharoitini yengib o‘tishda shifokorlar ko‘magi juda katta kuch bo‘lib, beminnat xizmat qildi va qilmoqda. Koronavirus pandemiyasi butun insoniyatni o‘ylantrayotgan paytda malakali shifokorlar, tajriba-li mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj ancha sezilib qoldi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shifokorlar ko‘rsatgan

fidokorlikni 2020-yil hisobidan Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan murojaatnomasida alohida ta’kidlab, o‘z minnatdorchiligini bildirgan edi. Ha, har bir davrdagi kabi bugun ham ular zamonamiz qahramonlaridir.

2021-yil 1-noyabr kuni Prezidentimiz 2022-yilgi davlat budgeti muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishida ta’lim va tibbiyot tizimiga e’tibor qaratar ekan, o‘qituvchi va shifokorlarning oyligini bosqichma-bosqich oshirishni, ushbu maqsad uchun 350 milliard so‘m ajratilishini, onkogematologiya, endokrinologiya, buyrak va jigar ko‘chirib o‘tish dasturlari uchun 1 trillion so‘m mablag‘ ajratilishini aytib o‘tdi. Shuningdek, koronavirusga qarshi emlanganlarning sonini 17 millionga yetkazish bo‘yicha topshiriq berdi.

Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilash, sohada yetuk va chuquq bilimga ega kadrlarni zamonaviy ta’lim standartlari asosida tayyorlash, tibbiyot tashkilotlari, ayniqsa, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini professional mutaxassislar bilan ta’minalash, tibbiyot ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining mavqeini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 4 ta viloyatdagি

oliy ta’lim muassasalarida tibbiyot yo‘nalishidagi fakultetlar ochildi. Jumladan, 2021-2022-o‘quv yili-da tarkibida tibbiyot oliygochlari bo‘limgan Qarshi davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Guliston davlat universitetlarida tibbiyot yo‘nalishidagi fakultetlar tashkil etilishi mazkur sohadagi muhim qadamlardan bo‘ldi.

Umuman olganda, yurtimizda kechayotgan jadal islohotlar jarayonida tibbiyot sohasiga ham qaratilayotgan e’tibor men kabi kasbdoshlarimga ham kuch-g‘ayrat, shijoat bag‘ishlaydi. Mamlakatda tibbiyot bo‘yicha o‘tkazilayotgan, yo‘lga qo‘yilayotgan islohotlarning barchasi fuqarolarning salomatligini ta’minalash bilan birlgilikda, shifokorlarning zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklaganligi ham jamiyatning yutug‘i. Shifokorlik kasbini butun umri davomida Gippokrat qasamiyodiga sodiq qolib bajayotgan tibbiyot xodimlari xalq va vijdoni oldida yorug‘ yuz bilan tura oladi, ularning eng ulkan baxti ham shunda. Muhimi, kasbiga mas‘uliyat va muhabbat bilan yondashishida. Shu o‘rinda, Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida talabalarga o‘z bilimini beminnat ulashayotgan jonkuyar ustozlarimizga qanchadan-qancha rahmat aysak arziydi. Bugungi talabalar O‘zbekiston fuqarolari salomatligining ertangi posbonlaridir. Ularga ta’lim berayotgan ustozlarning, millat salomatligiga daxldor hamkasblarimizning yo‘li va ertasi egnidagi libosi yanglig‘ nurli bo‘lishini tilab qolaman.

## JAHOLATGA QARSHI – MA'RIFAT



Ma'lumki, XXI asr axborot asri bo'lib, hozirgi davr avlod globallashuv jarayoni shiddatli tus olgan zamonda yashamoqda. Aynan yosh avlod turli ko'rinishdagi g'oyaviy xurujlar nishoniga aylangani ham hech kimga sir emas. Bir tomondan ekstremistik ruhdagi oqimlar faoliyati, boshqa tomondan missionerlar harakati, uchinchi tomondan esa "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari yosh avlod ongiga sof Islom dini ta'limotiga zid aqidalarni singdirish, muqaddas e'tiqodimizdan ayirish, o'zbekona milliy va diniy qadriyatlarimizdan voz kechishga targ'ib etish bilan o'z faoliyatlarini muttasil olib bormoqdalar. Natijada, sof Islom ta'limotidan yetarli darajada ilmaga ega bo'lmagan ba'zi yoshlar ekstremistik g'oyalarga chalg'ib turli xil jinoyalarga qo'l urmoqdalar, Ba'zilari ana shunday jinoyalarning qurbaniga aylanmoqdalar. Yana ba'zilari Islom dinidek ma'rifatparvar, tinchlikparvar, butun insoniyatga faqat yaxshilikni ta'lim berguvchi dinni qandaydir arzimagan dunyo matohiga almashib o'zga dinni "Din" deb qabul qilmoqda. Boshqalari esa g'arb davlatlarining moddiy taraqqiyoti go'yoki, ularning madaniyatiga asoslangandek xayol

qilib, kiyinrishda, o'zini tutishda va xatto fikrlashda milliylik va diniylikka yot usullarni o'ziga ma'qul ko'rmoqda.

Bugungi kunda axborot manzarasida ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar, yot mafkuralar ta'siri, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar e'tiborini tortyapti. Internet tarmoqlari nafaqat foydali manbalarni, balki o'zi bilan birga fiksizlik tanazzulini ham yetakalab yuribdi. Ijtimoiy tarmoqlardagi bunday tanazzulning qurbanasi asosan yoshlarni tashkil etishi esa haqiqiy fojiamizdir. Biz yoshlardagi salbiy g'oyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'naviy-mafkuraviy immunitetni yanada oshirishni vazifamiz va burchimiz deb qabul qilishimiz, shuning barobarida yoshlarimizga jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni o'rgatishimiz kerak. Shundagina ular bu jarlikka qulamaydi.

Kuni kecha Toshkent pediatriya tibbiyot institutida talaba-yoshlari, tyutorlar hamda professor-o'qituvchilar ishtirotida soha mutaxassislari bilan shu maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni "Jaholatga qarshi – ma'rifat" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Tadbirda professor-o'qituvchilar hamkor tashkilot vakillari hamda 150 nafar talaba-yoshlar ishtirot etishdi.

Tadbirni Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i A.Xudayberdiyev kirish so'zi bilan ochib berdi. Shundan so'ng, mavzuga oid masalalar bo'yicha taklif etilgan soha mutaxassislari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassis E.Norpo'latov, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi O.Yusupov, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Toshkent shahar boshqarmasi mutaxassis J.Meli-qo'ziyev, Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi eksperti, adabiyotshnos olim Qo'chqor Rahmonlarning ma'rulzalari tinglandi.

Bunday tadbirdar nafaqat yoshlar ongidagi buzilishlar oldini olishda, balki shaxsni jamiyat uchun foydali ishlarni qilishga undaydi, ayniqsa, yoshlarni yuksak ma'naviyatlari, mustaqil va erkin fikrlaydigan, har tomonlama sog'lom, barkamol avlod sifatida voyaga yetkazishda ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbir davomida yoshlarimizdag'i ma'naviy-ma'rifiy bo'shliqlarni ilm-u ma'rifat bilan to'ldirish, turli tajovuzlardan himoyalash uchun avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizga bo'lgan muhabbat va daxldorlik hissini yanada rivojlantirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni yoshlar qalbiga doimiy singdirib borish zarurligi ta'kidlandi. Mamlakatimizda talaba-yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan oqilona foydalanish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, qabul qilingan xuquqiy qoidalari va xavfsizlik qoidalariiga amal qilishi bo'yicha ma'lumot berildi.

Shundan so'ng, talaba-yoshlarning mavzu yuzasidan bildirilgan savol va takliflari tinglandi. Mazkur savol va takliflarga tashrif buyurgan soha mutaxassislari tomonidan munosabat bildirildi va kelgusida bu kabi uchrashuvlarni mintazam o'tkazib borishga kelishib olindi.

XXI asr texnikaning, ilm-fanning cheksiz imkoniyatlari bilan birga insoniyat ma'naviyatiga jiddiy xavf soluvchi omillarni ham tuhfa etdi. Ko'rmmas tahdidlardan kelajagimizni himoyalash uchun har birimiz ma'sul va javobgar davrda yashayapmiz. Millatning, jamiyatning, shaxsning dushmani loqaydlikdir. Vatan va kelajak oldidagi burchimizga sobitlik millatning vakili o'laroq har birimizning yelkamizdag'i yuk va nazorat nigohi. Ajdoddalardan meros an'ana va qadriyatlarni avlodlarga talofotlarsiz yetkazish, sog'lom tafakkur, toza ruh – kechagi sharafimiz, bugungi talabimiz, ertangi qarzimizdir!



**A.XUDOYBERDIYEV,  
ToshPTI Yoshlar bilan ishslash ma'naviyat va  
ma'rifat bo'limi boshlig'i**

# TALABALAR BILAN ISHLASHNING YANGI TIZIMI

Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliv ta’lim muassasalarida talabalarini turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, 2021-yil 1-sentabrdan boshlab talabalar bilan ishlash bo‘yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilinib, 1–3-kurs talabalarining muammolarini bartaraf etishda yaqindan yordam ko‘rsatuvchi tyutorlarni biriktirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Har 120–150 nafar talabaga 1 ta shtat birligi hisobida tyutor lavozimi kiritiladi hamda uning oylik maoshi “O‘qituvchi-stajor” bazaviy lavozim maoshiga tenglashtirilishi, tyutorlar talabarning ma’naviy va ijtimoiy holatini doimiy ravishda tahlil qilib borishi va ularning mavjud muammolarini bartaraf etishda yaqindan yordam berishi belgilangan edi.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham rektori B.T.Daminovning tegishli buyrug‘iga asosan mamlakatimiz oliv ta’lim muassasalari ichida birinchilardan bo‘lib universitetda talabalar bilan ishlashning yangi tizimi – tyutorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yildi.

Xo‘sh, mazkur faoliyatning mazmun-mohiyati, uning talabalar hayotidagi ahamiyati, foydali jihatlari qanday? Tyutorlarning qanday huquq va majburiyatlari bor?

Tyutor – bu talabalarga nafaqat bilim berish, balki, uning maqsadga erishishi uchun mustaqil ravishda harakat qilishga o‘rgatadigan, o‘z kamchiliklari ustida ishlashga, ajdodlar tajribasini amalda qo‘llashga da‘vat etadigan, ta’lim va tarbiya jarayonini birgalikda olib borishda bog‘lovchi vazifasini o‘taydigan yuksak kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Tyutor talabarning shaxsiy rivojlanishini yo‘naltiradi va ularning turli respublika hamda xalqaro tanlovlardagi munosib ishtiroti borasidagi faoliyatiga ko‘maklashadi, shuningdek ularni kasbga yo‘naltirish borasida qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, talabarning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni insonparvarlik,adolat, mehnasevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ongida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllan-



tirish, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishda ko‘makchi, yo‘l ko‘rsatuvchi vazifalarini bajarish ham bu yangi lavozim zimmasiga yuklatilgan. Tyutor o‘z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, institut ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga rioya etadi.

Nizomda tyutorlarning asosiy maqsadi — ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabarning universitet hayoti va ta’lim jarayoniga moslashishiga ko‘maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish va talabalarda tanlagan kasbiga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg‘ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta’minlaydi hamda ijtimoiy ahvolidan doimiy xabardor bo‘lib turishi ko‘rsatilgan.

Boshqa oliv ta’lim muassasalari singari Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham tyutorlar faoliyatiga umumiylar rahbarlikni Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor amalga oshiradi.

Tyutorlar ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-tarbiya, o‘quv va o‘quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida o‘z faoliyatini olib boradi.

Har bir tyutor o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to‘garaklarga jalb etishi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste’dodini namoyon etishi uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan.

Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilish, ularning ta’lim olishi, ilm bilan shug‘ullaniishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko‘maklashish va bu boradagi yangiliklardan ta’lim muassasasi rahbariyatini xabardor qilib borishi ham tyutorlik fazifalariga kiradi. Talabalarning darslarni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovation ta’lim texnologiyalari va o‘quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta’milanishi va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi.

Har bir tyutor o‘ziga biriktirilgan akademik guruhlarning darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishlari uchun talabalarga e’lon berish va ular tomonidan tegishli hujjatlarni yig‘ib taqdim etish hamda tashkil etiladigan komissiya yig‘ilishida talabarning ishtirotini ta’minalash, akademik ta’til berish masalasini hal qilishda ishtirot etish, ularni rag‘batlantirilish yoki jazolanish, turli stipendiyalarga tavsija qilishda xulosa, tavsifnomha va fikrnomha berish huquqiga ega

Shuningdek, har bir tyutor talabarning sha’ni va qadr-qimmatini, obro’sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo‘lish, yoshlarning ota-onalari va o‘zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir.

**S.A.BEGMANOV  
J.K.JO’RAQULOV**

# INSTITUTIMIZ OTMLARNING TOP 20 TALIGIDA!

Hayotimizning eng qiyin yoki tashvishli daqiqalarida yordam so‘rab o‘rganib qolgan odamlar toifasi mavjud. Gap tibbiyot mutaxassislari haqida ketmoqda. Agar oddiy odam birovning hayotini saqlab qolsa, u qahramonga aylanadi – matbuot u haqida yozadi. Odamlar unga minnatdorchilik bildiradi. Shifikorlar va boshqa sog‘liqni saqlash xodimlari har kuni nechi kishining hayotini saqlab qolishadi. Ular uchun bu oddiy hol. Gap shundaki, tibbiyot xodimi bo‘lish, o‘z hayotini ushbu kasbga bag‘ishlash uchun nafaqat istak, fidoyilik, balki haqiqiy kasb ham bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha sohalarda juda ko‘p istohotlar olib borildi.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi 2021-yili yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarini milliy reytingini e’lon qildi. Tibbiyot sohasidagi yuksalishlarni Oliy ta’lim muassasalarini milliy reytingida Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 11-o‘rinni egallagani misoldi ham ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyati respublika bo‘yicha ToshPTI 3-o‘rinni egalladi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizning tibbiyot sohasidagi oliy ta’lim muassasalarini reytingida 3-o‘rinni egalladi.

Reytingda Respublikamizdagи barcha oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini ilmiy faoliyati, o‘quv-metodik ishlari va o‘qitish sifati, talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyatiga baho berildi.

Mukofotlar yuqori kasbiy ma-horat, uzoq yillik tajriba, tanlagan kasbiga sadoqat uchun beriladi. Tibbiyotga oid asarlar, ixtisoslashtirilgan jurnallarda maqolalar nashretish, yangi tibbiy nazariyalar yaratish va shunga o‘xshash ishlarning nashr etilishi ham muhimdir.

Hayotda moliyaviy o‘sishga ta’lim orqali erishish mumkin. Ta’lim azaldan odamlarni o‘z huquqlari to‘g‘risida xabardor qilishning asosiy vositasи sifatida ishlataligan.

Bugungi kunda ko‘pgina rivojlanmagan mamlakatlar ta’limning jamiyatdagi ahamiyatiga e’tibor bermaydilar, bu esa aksariyat davlatlarning sust rivojlanishiga olib keldi.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida tafakkuri teran har bir O‘zbekiston fuqarosi muvaffaqiyat muvaffaqi-

ylatarga olib kelishining jonli guvohi bo‘lib kelmoqda. Ta’limni hech qachon e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi, chunki ta’lim har qanday jamiyatning yuragini tashkil qiladi. Har qanday jamiyatning muvaffaqiyati uchun yangi kashfiyotlarni yaratish, bu kashfiyotlarni bilish orqali insoniyat taqdirida tub burilishlar yasovchi yangi imkoniyatlarga erishish mumkin. Bugungi kunda jahon maydonidagi ko‘plab rivojlangan davlatlarning o‘sishi yoshlariga berilayotgan ta’lim sifati bilan bog‘liq. Sifatli ma’lumotga ega bo‘lgan kadrlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘sishi va rivojlanishiga olib keladigan islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni yaxshilashga qodir. Mamlakatimiz rahbari bu tendensiyalarni chuqr his qilgan holda na’lim sohasiga siyosat darajasida e’tibor qaratmoqda.

Ta’lim orqaligina bizning ufqlarimiz kengayib boradi, kelajakda biz nafaqat mamlakatlarimiz hayotiga doir shaxslarga aylanamiz, balki butun dunyo millatlarining turmush tarziga, hayot farovonligiga daxdorlik tuyg‘usi bilan kelajakka mash’al ko‘tarib boramiz.

Bugungi islohotlarga “labbay” deb javob berib, 2021-yili yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarini milliy reytingida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 11-o‘rinni egallagani institut jamoasini quvontirdi va shu bilan bir qatorda mas’uliyat ham yukladi. Professor-o‘qituvchilarimizning ilmiy salohiyati respublika bo‘yicha 3-o‘rinni qayd etgani keyingi yillarga mo‘ljalni yuqori olishga shijoat bag‘ishlaydi.

**Abdulaziz NOSIROV**



## XALQARO TALABALAR ONLAYN OLIMPIADASI

Bugun dunyo xuddi sportdag'i olimpiya o'yinlari kabi, fanning barcha tarmog'ida olimpiya bellashuvlarida ham o'zining intellektual salohiyatini namayon qilmoqda. Olimpiadalar davomida ishtirokchilar murakkab nazariy va ko'p hollarda eksperimental muammolarni hal qilishadi. Qiziqish va ko'nikmalarni rivojlantirish, tabiiyki, musobaqa davomida juda kichik rol o'ynaydi va erkin fikrlashni boshlash imkonini beradi.

Fan olimpiadalari o'rtaida kuchli munosabatlar mavjud, biroq har bir musobaqaning ajoyib qirrasi bu maqsadga erishish uchun qulay muhit yaratadi. Maqsadli yosh guruhlaridagi farq o'quvchilarning o'rta ta'lim davomida qiziqishi va malakasini oshiradi. Pedagogik jihatdan musobaqlar mezonlariga muvofiq nafaqat alohida talabalar uchun, balki maktablarda turli darajali o'quvchilar uchun hamdir. Talabalar uchun musoboqlar, albatta, ularning sa'y-harakatlari va yutuqlar e'tirof etiladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Va erishilgan yutuqlar beradigan motivatsiya ham shunga yarasha.

Tafsilotlarga kirishdan oldin shuni ta'kidlash kerakki, har bir xalqaro olimpiada oz sonli o'quvchilarga mo'ljallangan va ularning individual ilmiy ko'rsatkichlariga e'tibor qaradadi. Shu o'rinda, 2021-yil 11-oktobr kuni Toshkent pediatriya tibbiyot instituti "Pediatriyaning oltin kuzi" deb nomlangan Xalqaro talabalar onlayn olimpiadasi bo'lib o'tdi.

Olimpiadada ishtirok etgan jamoalar "jamoat taqdimoti", "test topshiriqlari", "vaziyatli masalalar", "Quiz intellektual o'yini" kabi bir-nechta bosqichlarda bilim va

imkoniyatlarini jamoadoshlari bilan hamjihatlikda sinovdan o'tkazdi.

Olimpiadada ishtirokchilarga taqdim etilgan savollar va vazifalar pediatriya sohasidagi muhim nazariy bilimlarni va tez tibbiy yordam ko'rsatishning amaliy ko'nikmalarini aks ettirdi. Quiz intellektual o'yinlar viktorinasi talabalarga tibbiyot tarixini chuqur o'rganishga va umumiy bilimi ni oshirishga imkoniyat yaratdi.

Keskin va murosasiz vaziyatlarda vazifalar, testlar va boshqa musobaqaning bajarilishini baholash tajribali professor-o'qituvchilardan iborat bo'lgan xalqaro hakamlar hay'atiga yuklatildi. Ustozlar jamoasi ham topshiriqlarning onlayn tarzda bajarilishi ustidan xolis nazorat olib bordi

Olimpiadada xorijiy davlatlar va O'zbekiston Respublikasidan jami 11 ta jamoa qatnashdi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institut mezonlik qilgan xalqaro olimpiadada Rossiyaning Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti, I.I.Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbiy davlat tibbiyot universiteti, Volgograd davlat tibbiyot universiteti; Ukrainianing A.A.Bogomolets nomidagi Milliy tibbiyot universiteti hamda I.Ya.Gorbachevskiy nomidagi Ternopol milliy tibbiyot universiteti; Belarusianing Grodno davlat tibbiyot universiteti; Tojikistonning Abu Ali ibn Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti va Xatlon davlat tibbiyot universiteti; O'zbekistonning Buxoro davlat tibbiyot instituti, Qoraqalpoq tibbiyot instituti talabalarini qatnashdi.

Keskin intellektual kurash, munozaralarga boy ruhda o'tgan olimpiada natijalariga ko'ra 1-o'ringa A.A.Bogomolets nomidagi Milliy tibbiyot universiteti jamoasi, 2-o'ringa Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti jamoasi, 3-o'ringa Grodno davlat tibbiyot universiteti jamoasi loyiq deb topildi.

Aslini olganda, bilimlar bahsida g'olib yoki mag'lub degan tushuncha bo'lmaydi. Bilimlar bahsining har bir ishtirokchisi g'olibdir. Tengdoshlari



bilan tanishuvga, ustozlardan yangi tajribalar almashishga, ilmga bo'lgan yangi motivatsiyalar olishga sabab bo'lgan "Pediatriyaning oltin kuzi" Xalqaro talabalar onlayn olimpiadasi ishtirokchilarida ham anglangan va anglanmagan yutuqlar bisyor. Bu yutuqlar yillar davomida o'z samarasini berib boraveradi.

Ilm-fan, texnika, san'at, umuman olganda, insonlarning turmush tarzi taraqqiy etgani sayin ehtiyojlarimizning talabi ham mukammal xizmatlarni taqozo etib bormoqda. Shu jumladan, sog'lom organizmning borliqqa mustahkam aloqlari uzun va totli umr bilan belgilanadi. Hayot ne'mtlaridan to'laligicha bahramand bo'lishimiz uchun bizga ko'p narsalar kerak bo'ladi. Salomatligimiz bosbonlari – shifokorlar. Tanamizning biron a'zosi bezovta qilganda ularga yakinamiz. Har tomonlama yetuk tibbiyot xodimi u yashayotgan davlat va xalqning boyligi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida o'tkazilgan "Pediatriyaning oltin kuzi" Xalqaro talabalar onlayn olimpiadasi bugungi talaba, ertangi salomatlik posbonlarini ilimning yangi sarhadlari tomon ilhomlantirdi. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ushu intellektlar bellashuvli talabalarning keyingi qadamlariga yanada ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

*Xasanxodja ABIDOV,  
ToshPTI rektorining yoshlar  
masalalari bo'yicha  
maslahatchisi – institut  
Yoshlar ittifoqi boshlang'ich  
tashkiloti yoshlar yetakchisi,  
O'zbekiston Respublikasi Oliy  
Majlisiga Qonunchilik  
palatasi huzuridagi  
Yoshlar Parlamenti a'zosi*



## TIL – KO'NGIL TARJIMONI

Til insoniyatning eng muhim munosabat shakli sanaladi. Har bir insonning o‘z millati, e’tiqodi bo‘lganidek, o‘zining ona tili ham bo‘ladi. Inson xoh ispan, xoh turk, xoh o‘zbek bo‘lsin, Allohga o‘zining tili bilan murojaat qiladi, onasidan ona tilida alla eshitadi va mehrga yo‘g‘rilgan dil izhorlari ham o‘z tilida yangraydi. Shuning uchun ham til – ko‘ngilning tarjimonidir. Rus millati onasiga mehrini “Я тебя люблю” deb, ingliz xalqi “I love you” deb, oqko‘ngil o‘zbek elining musulmonlari esa “Sizni yaxshi ko‘raman, ona” deb so‘zga ko‘chirishadi. Zero, izhori mehr qaysi tilda jarang sochmasin, eng go‘zal va eng jozibali til sifatida qiymatini yo‘qotmaydi.

Til har bir millatning xarakterini ifodalab keladi, har kim o‘z tilini o‘zicha yaxshi ko‘radi, qadrlaydi, kelajagi uchun qayg‘uradi. Moziyga nazar solsak, millatning ziyoli qatlami millat qiyofasi uchun kurashganda tilni ham ko‘z qorachig‘idek asraganiga guvoh bo‘lamiz. Davlat siyosatida tilning o‘rni doim muhim o‘rin tutib kelgan.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillardan boshqa sohalar qatori o‘zbek tilining rivojiga ham katta e’tibor qaratib kelinadi. Millat jonkuyarlari tilimizning istiqboli yo‘lida doim kamarbasta, izlanishda.

Kuni kecha Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida shu munosabat

bilan O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tomonidan “Ona tili – millat ko‘zgusi” mavzusida katta tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Toshkent pediatriya tibbiyot institutining O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi K.Sh.Turdiyeva, ma’naviy-ma’rifiy va xotin-qizlar ishlari bo‘yicha mas’ul, katta o‘qituvchi M.R.Hamroqulova, o‘quv ishlari bo‘yicha mas’ul N.U.Mehmonova, ilmiy ishlar bo‘yicha mas’ul pedagogika fanlari nomzodi G.M.Ahmedova, kafedraning katta o‘qituvchilar R.A.Berezovskaya, M.X.Mahkamov, Z.X.Sodiqova, G.K.Kuramboyeva hamda o‘qituvchilar Z.T.Rasulova, F.A.Akbarxo‘jayevalar ishtirok etdilar.

Tadbir avvalida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha ma’sul, katta o‘qituvchi M.R.Hamroqulova so‘zga chiqib, tadbir ishtirokchilarini bayram munosabati bilan tabrikladilar va o‘zbek tilining tarixi, bosib o‘tgan yo‘li haqida aniq dalillar asosida ma’ruza qildilar. So‘ngra so‘zni O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent, bolalar shoirasi K.Sh.Turdieyvaga berdi. Ustoz so‘zga chiqib, avvalo barcha ustoz va talabalarni ona tili bayrami kuni bilan qutladilar va o‘zlarining ijod namunalaridan talaba, yoshlarga o‘qib eshittirdilar.

Tadbir davomida talabalar “Ona tili – millat ko‘zgusi” mavzusida chi-

royli she’rlar, g‘azallar o‘qish bilan birgalikda qo‘sishlar ham kuylashdi. Bu tadbir davra ahliga manzur kelди, ishtirokchilar ona tili haqidagi bilimlarini boyitdi, mustahkamladi, ongidagi millat, vatan tushunchalarini yana-da tiniqlashtirib oldi. Ayniqsa, janubiy koreyalik talaba Gang Xuyun Kvonning chiqishi zaldagilarning davomli qarsaklariga sabab bo‘ldi. Bu koreyalik talaba institutda ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha tahsil olayotgan bo‘lib, u sof o‘zbek tilida yig‘ilganlarni bayram bilan tabriklab, Abdulla Oripovning Ona tili haqidagi she’rini yoddan o‘qib berdi va ustozlari, talabalarni hayratlantirdi.

Til – millatlararo sehrli ko‘prik hamdir. Til orqali biz o‘zga millatning mintaliteti, urf-odati, o‘tishi, orzu-istiklari, dini, e’tiqodi bilan tanishamiz. Ularning qalb kechinmalariga oshno bo‘lamiz. Koreyalik talaba qiz Gang Xuyun Kvon ham yodlagan she’ri orqali o‘zbek millatiga mansub ayolning iztiroblari, e’tiqodi, ibosi, armonlari bilan tanishgani o‘laroq o‘zbek aylanling obrazini ongida muhrlagani, o‘zining millatdoshlariga bu haqda gapirib berishi shubhasiz. Til inson qalbining tilmochi va u botiniy sarhadlarda mo‘jizalar yaratadi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida til bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Ona tili – millat ko‘zgusi” tadbiri a’lo darajada bo‘lib o‘tdi va tadbir so‘ngida tashkilotchilarga tashakkur bildirildi. Talaba yoshlar tadbir davomida tilga muhabbatni yanada chuqurroq angladilar va his qildilar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Vatani ertasiga o‘zini daxldor bilgan har bir talaba qalbidagi ona tilga nisbatan hurmat, ehtirom, mas’ullik hissi yana bir bor mustahkamlandi.

**R.HAMROQULOVA,**  
yoshlar bilan ishlash bo‘yicha  
kafedra mas’uli, katta o‘qituvchi.  
**M.AHMEDOVA**



## INSTITUT TTJGA SAYOHAT

Talaba so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, arabcha: izlovchi, o‘rganuvchi; lotincha: studens – qunt bilan ishlovchi, shug‘ullanuvchi degan ma’nolarni bildiradi.

Turkistonda islom dini yoyilgan VII-VIII asrlarda boshlang‘ich mакtabdan so‘ng bilim olish bilan mashg‘ul bo‘lgan har bir kishi talaba hisoblangan. XXI asrda talaba maqomining sharaf va mas’uliyati qamrovi bu atamaning dastlabki ko‘rinishidan tubdan farq qildi. Bugun talaba jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan, har bir mamlakat ilmiy-intellektual salohiyatining darajasini belgilab beruvchi, rivojlanish istiqbollariga tikilayotgan sarmoyaga aylangan. Shu bois ham jahon maydonida o‘zining o‘rniga ega davlatlat ta’limga katta e’tibor qaratmoqda, yoshlarning puxta ta’lim olishi uchun bor imkoniyatini safarbar etishda jонbozlik ko‘rsatyapti. Chunki mamlakat iqtisodi va madaniyatining yuksalishi, xalq xo‘jaligiga ilm-fan yutuqlarining joriy etilishi uchun oliy ta’lim muassasalarining talabalari chuqur nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda talabalar miqdori sezilarli darajada ortdi. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning oliy ta’limga qamrovini kengaytirish, ularga yana-da keng imkonyatlar yaratish borasida salmoqli amaliy ishlari qilinmoqda. Xususan, talabalik baxtiga muyassar bo‘lgan yoshlarimizga ham ko‘rsatilayotgan e’tibor va yaratilayotgan imkoniyatlar shular jumlasidandir. Chunki talaba mamlakatning ijtimoiy jihatdan eng faol, harakatchan, jonkuyar fuqarosi hisoblanadi.

Yotoqxonada talabalarning yashashi, o‘z ustida mustaqil ishlashi, dam olishi hamda sport, san’at va boshqa klublarda qatnashishi uchun sharoitlar yaratilgan bo‘lib, zamonaviy jihozlangan, ozoda, yorug‘ ARMLarida barcha yo‘nalishlardagi kitoblarni topish mumkin. Talabalar turar joyining moddiy-texnik ta’minati, uni kapital va joriy ta’mirlash, binodagi qattiq va yumshoq krovat, mebel, xona jihozlar (ko‘rpa-to‘sak, yopinchilqr), texnika vositalarini saqlash, ta’mirlash, hududni obodonlashtirish, tozaligini ta’minalash, kommunal-xo‘jalik xizmatlari (issiq va sovuq suv ta’minati, kanalizatsiya, suv quvurlarini ta’mirlash) va boshqa



shart-sharoitlari institut tomonidan ta’milanadi. Talabalar turar joylarida istiqomat qiluvchi talabalar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ta’sis etilgan qoidalar asosida vaqtincha ro‘yxatga olinadi. Tarbiyaviy-madaniy, sport-sog‘lomashtirish ishlari va talabalar turar joyida yashovchilarga maishiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish borasidagi umumiyo rahbarlik institut rektori zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, bu manzilga institut ishchi-xizmatchilari, begonalar, talabalarning oila a‘zolarini joylashtirish qat’iyan man etilgan. Talabalar turar joylarida yashash uchun to‘lov miqdori institut Ilmiy Kengashi qarori bilan belgilanishi ko‘rsatilgan.

Institut TTJdagagi shart-sharoitlar, talabalarning kayfiyati bilan tanishish mabsadida kichkina sayohat uyuşhtirdik. Marhamat, so‘z talabalarning o‘zlariga.

– Men Polvonov Otabel Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 1-bosqich talabasiman va yotoqxonada turaman. Yotoqxona sharoitlari uyimizdek yaxshi va qulay. Yotoqxonada tarbiyachilar bilan, xonadoshlarimiz bilan munosabatlarimiz ko‘ngildagidek. Ahilmiz. O‘g‘il bolalar bilan aka-ukadekmiz, qizlar – opalarimiz, singillarimiz! Ularни himoya qilib yuramiz. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti yotoqxonasi Toshkentdagi eng yaxshi yoqtoqxona!!!

Shu kayfiyatda ikkinchi talabaning eshigini qoqdik va u ham yotoqxonadagi imkoniyatlar, qulayliklar haqida o‘rtoqlashdi.

– Men Maxmasoatova Fayzoa Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 3-kurs talabasiman. Yotoqxona sharoiti zamonaviy va biz uchun barcha imkoniyatlar, kompyuter xonasidan to kutubxonagacha bor. Va yana yotoqxonamizda

master klasslar va bayram kunlari tadbirlar tashkillashtiriladi. Bularning bari vaqtimizdan unumli foydalinishga xizmat qiladi. Barcha sharoitlar o‘ylaganimizdan a’lo darajada, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarbiyachilarimiz, xonadoshlarimiz bilan bir oiladek yashayapmiz.

Birinchi bosqich talabasi Yulduzning muxtasar gaplariga mikrafon tutdi.

– Men Ochilova Yulduz institutning 1-kurs talabasiman. Yotoqxonaga sentaborda kelgan bo‘lsam, tarbiyachimiz bizni onamizdek kutib oлган. Yotoqxona sharoiti ham, muhit ham ko‘ngilga yoqadigan darajada chiroqli va qulay.

O‘g‘il bolalar xonasining eshigini ham taqillatdik. Eshikni Quvonchbek ochdi.

– Men Ro‘ziyev Quvonchbek institutmiz yotoqxonasi haqida gapiradigan bo‘lsam, yotoqxonamizning muhiti judayam yaxshi. Barcha sharoitlar bor va a’lo darajada. Hamma narsa: oshxona jihozlaridan tortib, krovatlarimizgacha yangi. Sharoitidan tashqari yotoqxonaning muhiti ham chiroqli. Xuddi oilamizdagidek his qilamiz o‘zimizni.

Ilm-fanni o‘zlashtirish bilan mashg‘ulliklari uchun talabalar jamiyatning intellektual ilg‘or qatlami sanaladi. O‘zbekistonda talaba yoshlarning mamlakat hayotida faol ishtiroy etishlarini ta’minalash, milliy istiqlol g‘oyasini to‘liq egallab olishlariga imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti TTJdagagi shart-sharoitlar bilan tanishib, yotoqxonada turgan talabalarga havasda qaytdim. Bu g‘amxo‘rliklardan esa qalbimizdagi yurt, millat taqdiriga daxdorlik hissi ikki karra oshadi.

***Shahnoza ABDUHOSHIMOVA***



Ijod bu – gulshan! Gulshan oralab gul termoq hammaga ham nasib etmaydi.

Har qanday sohaning o‘ziga yarasha mashaqqati, qiyinchiligi bo‘lgani kabi, ijod sohasida ham mashaqqat ila sidqi-dildan mehnat bilan el orasida hurmat, e’tibor, ehtiromga sazovor bo‘lish mumkin. Ijod naqadar go‘zal!

Uni ta’riflashga til ojiz, go‘yo.

Maktab kezlaridan she’riyatga qiziqishimni sezgan ustozlarim meni nihoyatda qo‘llashdi. So‘ng Guliston akademik litseyining “Tabiiy fanlar yo‘nalishi (biologiya)ga” o‘qishga kirdim. Bu dargohni baxt maskanim desam hyech ham mubolag‘a bo‘lmaydi! Sababi, barcha yutuqlarim asosiy qismi shu dargohda ta’lim olganim bilan bog‘liq! Tibbiyot oliygohi talabasi bo‘lish istagida shu yo‘nalishni tanladim. Litseyda o‘qish davomida ijod olamini tark etsam kerak deb o‘ylagan edim. Yo‘q, aksincha bo‘ldi. Ijodga qiziqishim kun sayin ortib borardi. Albatta, bu ustozlarimning dalda va meni kelajakka intilib yashashga da‘vatlari tufayli bo‘lgan. Ayniqsa, D.Qudratov, U.Begimqulov, M.Utayev, O‘.Ro‘ziyeva va X.Hudoyorov ustozlarimning o‘rni beqiyos! Litseyda o‘qigan paytlarimda she’rlarim respublika, viloyat, tuman, shahar va universitet gazetalarida birin-ketin chop etildi. Litseyni bitirib Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi bo‘lishdek baxtga tuyassar bo‘ldim. Tibbiyot oliygohi talabasi bo‘lgach, “Buyrak kasalliklari va uni davolash usullari” nomli ilmiy maqola yozdim va u Rossianing xalqaro jurnalida chop etildi. Shu orada “Nishona” to‘garagi haqida eshitib qoldim va menda ijodni yanada yuksaltirish hissi paydo bo‘ldi. Institutimizda taniqli bolalar shoira Kavsar opa Turdiyeva bilan yaqinidan tanishishni istab, hozirda ular bilan birgalikda ijod olamida yanada yuksak marralarni zabt etishni maqsad etib qo‘ydym! Juda ham samimi, bir qarashda kishini ichki kechinmalarini anglab oladigan bu oqko‘ngil shoira Kavsar opa Turdiyeva bilan ijod sohasida baland cho‘qqilarni oshib o‘tishimizga ishonaman! Kelajakda tibbiyot sohasini puxta egallab, ijod olamida o‘ziga xos iz qoldirish bugungi kunda butunlay vujudimni va ruhiyatimni qamrab olgan olyi maqsad!

## O‘ZBEKISTONIM!

*To ‘rt fasl mujassam mening o‘lkamda,  
Maysalar ochilar go‘zal ko‘lamda,  
Ko‘rib, ko‘zim quvnab, sevinch-la namda,  
Ta‘rifing etmoqqa ojiz zabonim,  
Alloh nigoh etgan, O‘zbekistonim!*

*Xushbo‘y ifor sochar chaman gulzoring,  
Sharqirab oqadi, mo‘jaz anhoring,  
Musaffo osmondir; sening ul yoring,  
Tabiating go‘zal, jannatmakonim,  
Alloh nigoh etgan O‘zbekistonim!*

*Buyuk ajdoddlardan merosim o‘zing,  
Qalbim to‘ridagi e‘zozim o‘zing,  
Yuksakga uchuvchi parvozim o‘zing,  
Shukurlar aytamiz, so‘lim diyorim,  
Alloh nigoh etgan O‘zbekistonim!*

*Sen menga ham ona, ham ota makon,  
Har qarich yeringni, avaylab har on,  
Ravnaqing yo‘lida bergayman men jon,  
Ey, aziz Vatanim, Ona tuprog‘im,  
Alloh nigoh etgan O‘zbekistonim!*

*O‘ziga bek asli azaldan O‘zbek!  
Mehmondo‘st xalq bormi ushbu elimdek,  
Shu yurt farzandimiz barchamiz birdek,  
Dovrug‘i dunyoga bo‘lgan dostonim,  
Alloh nigoh etgan O‘zbekistonim!*

**Sevinch Saidmurodova**

## O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

**Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:**

**KAFEDRA MUDIRLAR:** Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya.

**PROFESSORLAR:** Farmakologiya; Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya; Yuqumli kasalliklar.

**DOTSENTLAR:** Akusherlik va ginekologiya; Fakultet pediatriya; Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish; Farmakologiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Gematologiya.

**KATTA O‘QITUVCHILAR:** Pedagogika va psixologiya; Sud tibbiyoti, tibbiyot huquqi; Farmakologiya.

**O‘QITUVCHILAR:** Fuqarolar muhofazasi.

**ASSISTENTLAR:** Tibbiy radiologiya; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi; Patologik anatomiya; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ.

**Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog‘ishamol ko‘chasi 223, ToshPTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekti. 08.10.2021.**

<p>SALOMLATIKH – TUMAN BOYLIGI – KIZILKUM SHARFI TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ORGAN TRUDOVOTO KOLLEKTIWA TAŞKEHTSKOGO PEDIATRICHESKOGO MEDITSINSKOGO INSIUTUTA</p>	<p><b>Tahrir kengashi:</b> D.A.Asadov, A.V.Alimov, X.F.Haydarov, M.Ahmedova, K.N.Haitov, S.S.Gulyamov, D.T.Ashurova, A.Rahmatullayev, S.Nurxodjayev A.Valiyev, A.Nosirov, <b>Nashr uchun mas’ul:</b> Sh. Abduhoshimov</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> B.T.DAMINOV Tahrir hay’ati: (ishchi guruh) E.O.Tursunov, K.Sh.Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o‘rinbosari),</b> A.M.Mannonov, D.A.Ahmedova, H.Rasulov S.A.Begmonov, A.Nosirov, Z.Karimova, A.Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.</p> <hr/> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223</p> <hr/> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	---	---	--